

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI JISMONIY VA SHAXSIY RIVOJLANISHIDA BO'LG'USI JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING O'RNI

Isoqov Jamshid Zikrillayevich

O'zbekiston, JDPI, Sirtqi(maxsus sirtqi) bo'lim

ijtimoiy-gumanitar fanlarda masofaviy

ta'limi kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6338726>

Yosh avlodga ta'lim berayotgan o'qituvchilarning o'zlari zamonaviy innovatsion texnologiyalarni to'liq o'zlashtirgan, axborot-kommunikatsiya vositalaridan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari, umuman barcha ta'lim-tarbiya sirlaridan voqif bo'lishlari talab etiladi. Bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchilari ilmiy pedagogik faoliyati bilan bog'liq masalalarni o'rganishda, eng avvalo, mazkur hodisaga oid tushunchalarning mazmun-mohiyatini tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Mashhur rus pedagogi V.A.Suxomlinskiy: "Pedagogik rahbarlikning sirlaridan biri o'qituvchilarda muntazam izlanish va o'z ishining tahliliga qiziqish uyg'otishdan iborat bo'ladi. Kimki o'z darslarida, tarbiyalanuvchilar bilan o'zaro munosabatlarda yaxshi va yomonni farqlashga, yutuq va kamchiliklarini o'z vaqtida bo'lishga urinsa, pedagogik faoliyatning yarim muvaffaqiyatiga erishgan bo'ladi" - deb, pedagogik faoliyatga o'z ta'rifini shunday ifodalagan edi. Shu nuqtai nazardan olganda, o'z pedagogik faoliyatini endigina boshlagan yosh bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchisi umuman jismonan va ruhan bo'shashishi yoki butunlay osoyishtalikka berilishi mumkin emas. Boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy va shaxsiy rivojlanishda jismoniy tarbiya muammolari bilan shug'ullanayotgan, respublikamizda ko'zga ko'ringan olimlar o'zbek xalq milliy o'yinlarini o'rganish sohasida muayyan yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Bunday ishlardan biri sifatida professor T.Usmonxo'jaevning ishlarini alohida ta'kidlash mumkin. Olim, asosan, diqqatni bolalarning harakatli o'yinlariga qaratadi, ularni tasnif qiladi, tavsiflaydi. Uning tadqiqotlarida o'sib kelayotgan yosh avlodning "Jismoniy kamoloti" tushunchasiga oid O'zbekistonning aniq sharoitlarini hisobga olgan holda yangi konseptual yondashuvlar ishlab chiqilgan. Boshlang'ich sinfda dars berayotgan jismoniy tarbiya o'qituvchilari o'quvchilari jismoniy tarbiyasining vazifalari bolalarning yoshiga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlanadi, lekin bunda jismoniy tarbiyaning umumiy maqsadi ko'zdan qochirilmaydi. Maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy tarbiyasida sog'lomlashtirish, ta'lim berish va tarbiya berish vazifalarini amalga oshirish ko'zda tutiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy va shaxsiy rivojlanishda bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida o'qituvchilik kasbiga sadoqatli bo'lish, o'z fanini o'qitish metodikasini mukammal bilishi, pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olishi, pedagogik texnikani o'z o'rnida qo'llay bilishi eng muhim komponentlardan bo'lib hisoblanadi. Har bir bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi doimo o'quvchilarga jismoniy mashqlarni yetkazish bilan birgalikda parallel ravishda uning ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanib, u bilan o'zaro muloqot olib boradi.

Har bir o'quvchi aqliy, ruhiy va jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo'lganligi sababli ham boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy va shaxsiy rivojlanishda bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchilari bilan doimiy muloqotda bo'lishi, ularning har bir psixologik xarakteri va fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'sir ko'rsatish mexanizmlarini, avvalo,

psixologiya va tarbiya nazariyasini mukammal tarzda o'rganib, o'z kasbiy faoliyatini doimiy rivojlantirib borishi zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy va shaxsiy rivojlanishida bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchilarining pedagogik mahoratni to'liq egallashi uchun quyidagilar muhim xisoblanadi

birinchidan, o'z o'quv fanini davr talablari asosida o'zlashtirgan bo'lishi

ikkinchidan, psixologik va pedagogik bilimlarga ega bo'lishi (o'quvchilar xarakteriga mos usullarni qo'llay olishi);

uchinchidan, o'zida pedagogik izlanuvchanlik va fidoyilikni tarkib toptirishi

:

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqil davlatimizda yosh avlodning jismoniy kamolotini yuksaltirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy madaniyat va qadriyatlarni hurmat qilish, avaylab asrash tuyg'ularini o'stirishga diqqatni qaratmog'imiz lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning sog'lomlashtirish-tarbiyaviy ishlarini harakatli o'yinlar vositasida yanada jonlantirish uchun ularning jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik ko'rsatkichi o'rtasidagi o'zaro bog'liqligini aniqlash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016.–279b.
2. Sergeev I.S. Основы педагогической деятельности: Учебное пособие. – SPb.: Piter. Seriya "Uchebnoe posobie", 2004–316 s.
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi // To'xtaxo'jaeva M.X. tahriri ostida. – T.: "Moliya-iqtisod", 2008.y